

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADAGI MUAMMOLARI

Nosirova Arofat Erkinovna
Tosh DO‘AU mustaqil tadqiqotchisi
arofat.nosirova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologiya atamasi ibora, nutq oboroti, bilim, tushuncha ma'nolarini ifodalashi, frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan esa-da, uning kelib chiqish tarixi, til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqalishi haqida va tarjimadagi frazeologik muvofiqlik haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ibora, frazeologik birliklar tarjimasi, leksikologiya, tarjimada frazeologik muvofiqlik madaniy tushunmovchilik.

Annotation: this article provides information on whether the term phraseology refers to the meaning of expression, speech, knowledge, understanding, while phraseology has not yet been formed as a separate part of linguistics, but the history of its origin goes back to the early stages of language development, and on phraseological compatibility in translation.

Keywords: phrase, translation of phraseological units, lexicology, phraseological compatibility in translation, cultural misunderstanding.

Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birliklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan. Ammo jamiyatning turli davrlarida ularning o'rni va ahamiyati turlicha baholanadi. Frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir. Tilshunoslikda „frazeologiya“ atamasi fransuz tilshunosi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo'shib o'rganilgan. Lekin taniqli tilshunos olim professor Y. D. Polivanov frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bildirgan. Shu fikrni qo'llab-quvvatlagan olimlardan yana biri akademik V. V. Vinogradovdir. U o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalarni o'rgandi va ularni semantik jihatdan guruhlariga bo'lib chiqdi.[1] Y. D. Polivanov va V. V. Vinogradov tomonidan o'rta tashlangan frazeologiya haqidagi fikrlar keyinchalik bu sohada ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Lekin hozirga qadar frazeologiyani fan sifatida qarash yoki qaramaslik haqidagi fikrlar o'z yechimini to'laligicha topgan emas. Jumladan, frazeologiyaning hajmini tor ma'noda tushunuvchilar iboralarning faqat o'zini o'rganish lozim deb, maqol, aforizm va hikmatli so'zlarni frazeologizmlar tarkibiga kiritmaydi. Ba'zi olimlar frazeologik birikmalarni so'zlarning ekvivalenti hisoblab, uni leksikologiya tarkibiga kiritadi.[2] Frazeologiya atamasi ibora, nutq oboroti, bilim, tushuncha ma'nolarini ifodalaydi. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan esa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, frazeologik birliklar til bilan birga paydo bo'lib, til bilan birgalikda rivojlanib kelgan.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayoni oson kechmaydi, chunki bu jarayon bir narsa uni o'z ichiga kiritadi. Bular so'zlarning turli xil bog'lanishi, omonim, va frazeologik birliklarning sinonimi turli ma'noni ifodalashi, polisemiya va boshqalardir. Bulardan tashqari, frazeologik birliklarda muayyan xalqqa mansub uslubiy bo'yoqdorlik mavjudki, bu ba'zi tillarda uchramasligi ham mumkin. Frazeologiya asosini tushinishda yuqorida qayd etilganlarni esda saqlash kerak. Frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud: frazema va idiomalar. Frazemalar kontekst to be va aniq indikatoridan tashkil topgan birliklar. Idiomalar esa kontekstdagi umumiy ma'noni belgilab beruvchi, to be va aniqlovchilarning to'laligi va

tengligini belgilovchi lug‘at birliklardir.[5] Professor Sh. Raxmatullayev ham shu fikrga qo‘shilib: „Lug‘at boyligi so‘zlardan va shu so‘zlar asosida tuzilgan iboralardan tashkil topadi. So‘z lug‘at boyligi sifatida leksik birlik deb, iboralar esa frazeologik birlik deb ataladi. Bular umumlashtirilib, lug‘aviy birlik deb yuritiladi. Ibora lug‘aviy ma‘no anglatish uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra u lug‘aviy birlik hisoblanadi va shu jihatdan so‘z bilan bir qatorda quyiladi“, — deydi.[4]

Frazeologik birliklarning quyidagi turlari mavjud: frazema va idiomalar. Frazemalar kontekst to be va aniq indikatoridan tashkil topgan birliklar hisoblanadi. Idiomalar esa kontekstdagi umumiy ma‘noni belgilab beruvchi, to be va aniqlovchi unsurlarning to‘laligi va tengligini belgilovchi leksik birliklardir. Frazeologik birliklarning xar bir turi va shakli aniq mikrotuzilma deb qaralishi mumkin. Ularni tarjima qilish vaqtida vazifadosh, teng lingvistik birliklar ikki til o‘rtasida taqqoslab tanlanadi. Taqqoslash tamoyili o‘rtadagi o‘xshashlik va farqni ko‘rsatib beradi. Bu tizimning ba‘zi qismlari shaklan teng (qisman yoki butunlay), ba‘zilarining esa muqobil varianti umuman topilmasligi mumkin.

Tarjimada frazeologik muvofiqliklarning asosiy turlari quyidagilar: 1)to‘liq mos kelish; 2)qisman mos kelish; 3)umuman mos kelmaslik. To‘liq. muvofiqlik, ya‘ni ikki til frazeologik birliklarining ham shaklan, ham mazmunan to‘liq mos kelishi kamdan-kam uchraydi. Masalan: To bring oil to fire. — Olovga yog‘ sepmoq.

Qisman muvofiqlik frazeologik birliklar o‘z ichiga leksik, grammatik farqlanishga, ammo ma‘no va uslubiyatning o‘xshashligiga asoslanadi, ya‘ni ular shaklan bir xil, ammo leksik tuzilishi, morfologik tartibi va uslubiy yasalishi jihatidan umuman boshqacha bo‘lishi mumkin. Leksik jihatdan qisman muvofiqlikka misollar: To get out of bed on the wrong foot. — Chap yoni bilan turmoq. Weak as a kitten — jo‘jabirday jon

Armed to teeth. — Tish-tirnogigacha qurollangan. Snake in the grass — qo‘ynida ilon saqlamoq Umuman mos kelmaslik deganda bir tildagi frazeologik birliklarning boshqa tillarda muqobillari mavjud emasligi tushuniladi. Masalan, ingliz tilidagi ko‘pgina frazeologik birliklarning o‘zbek tillarida muqobillari mavjud emas. Muvofiq bo‘lmagan frazeologik birliklarni quyidagi usullar orqali tarjima qilish mumkin: so‘zma-so‘z tarjima: to call things by their true names — har narsani o‘z nomi bilan atamoq

Frazeologiya tilshunoslikning qisman yangi yo‘nalishi bo‘lib, olimlar tomonidan chuqur o‘rganib kelinayotganiga qaramay, tarjima sohasida xali ko‘plab qirralari ochilmagan. Tarjimaning frazeologik muammolarini tahlil qilar ekanmiz, frazeologik birliklarning tarjimada berilishi to‘liq, qisman va muqobilsiz birliklarda mavjudligini ko‘ramiz va ushbu jarayonda muqobil variantga ega bo‘lmagan frazeologik birliklarning qaysi metodlar orqali berilishini o‘rganamiz. Ularni tarjima qilish uchun yuqorida keltirilganidek, o‘ziga xos bo‘lgan usullar va texnikalar orqali tarjima qilinishi zarur va ularning barchasi kelajakda shu sohada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlarning talaygina ekanligini anglatadi. Ushbu birliklarning tarjima qilinishi ikki til va o‘z navbatida ikki millat va ularning madaniyati uchun tom ma‘nodagi ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi, bir-biri bilan aloqalarni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фёдоров. Введение в теорию перевода. М., 1952.
2. Ibrohimova Sh. “Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimada aks etishi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2010, 4-b.”
3. Komilov N. Bu qadimiy san‘at. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998. 5-b.

4. Mark Eduard Reese. Abdullah Qodiriy. “O‘tgan kunlar”/”Bygone Days”.-Nashville TN, 2019.
5. O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi, 1-tom (o‘zbekcha), Toshkent: Science and Innovation, 2022 — 342 bet.
6. <https://oz.sputniknews.uz/20230802/otkan-kunlar-roman-ozarbayjon-qayta-chop-etildi-37510787.html>
7. <https://www.youtube.com/watch?v=fEuznYVkdY4>
8. <https://yuz.uz/uz/news/mark-riz--otkan-kunlar--jahon-adabiyoti-durdonasi>
9. <https://kun.uz/news/2021/04/28/otkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F04%2F28%2Fotkan-kunlar-romanini-ingliz-tiliga-ogirgan-tarjimon-ozbekiston-yozuvchilar-uyushmasi-faxriy-azosi-boldi>